O‘ZBEKISTON DAVLAT JISMONIY TARBIYA VA SPORT UNIVERSITETI

FAN-SPORTGA

ILMIY-NAZARIY JURNAL

2026/2



ISSN: 2181 7804

FAN Sportga

ilmiy-nazariy jurnali

2026/2

Bosh muharrir
Rashid MATKARIMOV

Bosh muharrir o‘rinbosari ilmiy maslahatchi:
SH.SH. GAZIYEV

Tahrir hay’ati tarkibi:

E.T. Raxmanov
SH.S. Mirzanov
M.X. Mirjamalov
M.O‘. Arziqulov
K.F.Bayazitov,
F.K.Turdiyev,
N.J.Isakulova,
K.D.Yarashev,
D.X.Umarov,
M.S.Olimov,
A.N.Shopo‘latov,
S.B.Repkin,
A.Akbarov,
I.P.Sivoxin,
N.T.To‘xtaboyev,
I.J.Mambetnazarov,
I.B.Aliyev,
L.P.Yugay,
A.K.Eshtayev,
K.Sh.Ziyadullayev,
A.B.Jumaniyazov,
M.M.Qirg‘izboyev,
Z.Gapparov,
A.Xodjiyev,
A.U.Rashidov,
R.X.Nabiullin,
S.R.Davletmuratov,
O.E.Mamishev,
M.A.Ibragimov,
R.D.Xalmuxamedov,
B.A.Ishimov,
X.X.Atamuratov,
B.A.Satipov

Tahrir hay’ati kotibi
SH.X. Toshturdiyev

Jurnalning telegram kanali

MUNDARIJA/СОДЕРЖАНИЕ

SPORT MASHG‘ULOTLARI: TEXNIKA, TAKTIKA, USULIYAT SPORTS TRAINING: TECHNIQUE, TACTICS, METHODOLOGY ТЕХНИКА, ТАКТИКА И МЕТОДИКА СПОРТИВНОЙ ТРЕНИРОВКИ

Р.Д. Халмухамедов – Сравнительный анализ выступления сборной Узбекистана по боксу на чемпионатах мира 2025 года (Ливерпуль и Дубай). 3

Ш.Т. Исеев – Методология управления подготовкой футболистов с использованием современных технологий. 7

Sh.F. Tulaganov., J.O‘. Parpieva – “To‘p marraga” o‘yini orqali o‘quvchilarning umumiy va maxsus jismoniy tayyorgarligini oshirish uslubiyati. 11

Ш.Ш. Газиев., С.З. Нуруллаев – Особенности формирования и совершенствования технико-тактической подготовки в самбо и дзюдо. 16

B.A. Ishimov – Brass usulida suzuvchilarning oyoq kuchini rivojlantirish uchun mashqlar majmuasini tadqiq etish. 19

O.R. Igamberdiyev – Turli yoshdagi futbolchilar texnik-taktik tayyorgarligini baholash va boshqarishning pedagogik mexanizmlari. 22

X.M. Toshpulatov., B.B. Bakirov – Voleybolchilarda sakrash faoliyati samaradorligini oshirishda vaziyatli mashqlar asosida sakrash chidamkorligini rivojlantirish. 25

X.X. Qurbonov – O‘rta masofalarga yuguruvchilar sport mahoratini takomillashtirish bosqichi ikkinchi yilida sport formasini rivojlantirish mexanizmi. 28

G‘.N. Ernazarov., R.R. Majidov – Boks sport turi bilan shug‘ullanuvchilarda muvozanat saqlash mexanizmini tahlillari. 31

D.A. Alimova – Sportchi-talabalarini professional boksning turli jihatlariga bo‘lgan munosabatini o‘rganish natijalari. 34

A.A. Boltayev – Maxsus ish qobiliyatining sakrovchanlik komponentlari orqali voleybolchilar tayyorgarligini tahlil qilish. 39

С.А. Юнусов – Сравнительная эффективность традиционной и экспериментальной моделей тренировочного процесса у пара пауэрлифтеров высокой квалификации. 42

U.Sh. Valixonov – Maxsus tibbiy guruhlarga mansub talabalar sonining ortish tendensiyalari va sog‘lomlashtiruvchi atletik gimnastikaning optimal turlari. 45

S.E. Qodirov – Malakali dzyudochilarda maxsus kuch va tezkor-kuch sifatlarini rivojlantirishning ilmiy-uslubiy asoslari. 49

A.A. Yakubov – Yosh basketbolchilarning tezkor-kuch tayorgarligini differensiyali yondoshuv asosida takomillashtirish. 53

I.I. Islomov – 16–17 yoshli futbolchilarning texnik-taktik harakatlarini rotatsion mashg‘ulotlar orqali rivojlantirishning ahamiyati. 56

K.A. Yuldasheva – Yosh sportchi qizlarda disk uloqtirish natijalariga antropometrik ko‘rsatkichlarning ta’sirini statistik tahlil asosida baholash. 60

FAN Sportga

ilmiy-nazariy jurnali

Texnik tahririyat tarkibi:

N.N. G‘afforov
U.O. Azimova
M.S. Ayxodjaeva
M. Rahmonov

fan-sportga.uz

**“FAN – SPORTGA”
ilmiy-nazariy jurnali**

O‘zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti muassisligida chop etiladi

Tahririyat manzili:
111709, Toshkent viloyati, Chirchiq shahri, Sportchilar ko‘chasi 19-uy.

Mazkur ilmiy jurnal elektron formatda nashr qilinadi

05.02.2018 yilda Toshkent shahrida ommaviy axborot vositasi sifatida davlat ro‘yxatidan o‘tkazilgan.

Ro‘yxatga olish raqami № 02-005 “FAN – SPORTGA” jurnali 2004 yildan nashr etiladi.

Suratlar muallifi:
Anvar Ilyasov
Abdullo Fayzullayev

2026/2

**JISMONIY TARBIYA VA SPORTNING TIBBIY-BIOLOGIK VA IJTIMOIY-PSIXOLOGIK ASOSLARI
MEDICAL-BIOLOGICAL AND SOCIAL-PSYCHOLOGICAL FOUNDATIONS OF PHYSICAL EDUCATION AND SPORT
МЕДИКО-БИОЛОГИЧЕСКИЕ И СОЦИАЛЬНО-ПСИХОЛГИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ФИЗИЧЕСКОЙ КУЛЬТУРЫ И СПОРТА**

Z.X. Yusupova., S.B. Ibragimova – Sport faoliyatida statistik tahlilni amalga oshirishda SPSS dasturidan foydalanishning ahamiyati va dolzarbligi. 63

J.M. Ishtayev – Sport turlari kesimida portlash qobiliyati va temperament tiplari o‘rtasidagi bog‘liqlik. 66

O.X. Xasanov – Yosh futbolchilarning yurak ritmi variabilligini baholash metodikasi. 70

Г.А. Ералиева., Н.К. Султанова., Ш.Т. Хайдаров – Функциональное состояние сердечно-сосудистой системы гимнастов. 73

Х.Э. Мусулмонов – Практическая значимость формирования симметричных технических действий (бросков справа и слева) у борцов на поясах в экспериментальных условиях. 77

F.Ch. Ziyayev – Bosqon uloqtirish bo‘yicha sportchilarni musobaqalarga tayyorlashda ilmiy-tadqiqot faoliyatining integratsiyasi. 80

X.X. Qurbonov – Ko‘p yillik tayyorgarlik bosqichlarida o‘rta masofalarga yuguruvchilar sport formasini bosqichli takomillashtirish mexanizmi. 83

R.S. Xudarganov., R.B. Otaxonov., A.I. Otaboyev – 14–15 yoshli og‘ir atletikachilarning tayyorgarlik jarayonida mashg‘ulot yuklamalarini rejalashtirish va uning sport natijalariga ta’siri. 86

B.O. Amangeldiev – Boshlang‘ich tayyorgarlik bosqichidagi 10-12 yoshli yunon-rum kurashchilarga texnik-taktik usullarini o‘rgatish muammolari. 89

**ADAPTIV JISMONIY TARBIYA
ADAPTIVE PHYSICAL EDUCATION
АДАПТИВНАЯ ФИЗИЧЕСКАЯ КУЛЬТУРА**

L.T. Davlatova., U.R. Sharopova – Yugurib kelib uzunlikka sakrovchi ko‘zi ojiz sportchilarning jismoniy tayyorgarligini ilmiy asoslari. 92

Sh.I. Djumanazarova – Adaptiv jismoniy tarbiya vositalaridan foydalanish orqali tayanch-harakat apparatida buzilishlari mavjud bo‘lgan o‘quvchilarning jismoniy tayyorgarligini takomillashtirish. 95

L.T. Davlatova – Ko‘p yillik tayyorgarlik bosqichlarida para voleybolchilarni jismoniy va maxsus tayyorgarligini oshirish texnologiyasi. 99

N.SH. Bobomuradov – Malakali paradzyudochilarning mashg‘ulot jarayonini rejalashtirish. 102

**OMMAVIY JISMONIY TARBIYA VA SPORT
MASS PHYSICAL CULTURE AND SPORTS
МАССОВАЯ ФИЗИЧЕСКАЯ КУЛЬТУРА И СПОРТ**

M.K. Jumaniyazov – 14–18 yoshli regbichilarda tezkor-kuch sifatlarini rivojlantirishning samarali usullari. 106

A.N. Shopulatov – Jismoniy tarbiya va sport sohasida mutaxassislar malakasini rivojlantirish yo‘llari. 110

Xulosa.

Regbi-7 sport turida tezkor-kuchlilik sport natijalarini belgilovchi yetakchi jismoniy sifatlardan biri hisoblanadi. O‘tkazilgan pedagogik eksperiment asosida ishlab chiqilgan mashg‘ulotlar metodikasi yosh regbichilarning jismoniy tayyorgarlik ko‘rsatkichlarini sezilarli darajada oshirdi. Tezkor-kuchlilik ko‘rsatkichlarining o‘rtacha 10–13% ga yaxshilanishi va $p < 0,05$ darajada statistik ahamiyatli natijalar metodikaning samaradorligini tasdiqladi.

Shuningdek, mazkur metodika sportchilarning musobaqaviy faoliyatiga ijobiy ta’sir ko‘rsatib, yuqori sport natijalariga erishishga xizmat qildi.

Tavsiyalar. Mashg‘ulot jarayoni muntazam, bosqichma-bosqich va ilmiy asosda tashkil etilishi lozim.

Yuklama hajmi va intensivligi sportchilarning yoshi, individual xususiyatlari hamda funksional holatiga moslashtirilishi zarur.

Tezkor-kuchlilikni rivojlantirishga qaratilgan mashqlar texnik-taktik tayyorgarlik bilan uyg‘un holda qo‘llanishi kerak.

Taklif etilgan metodikani boshqa yosh guruhlari hamda o‘xshash harakat tuzilishiga ega sport turlariga moslashtirib qo‘llash mumkin.

Adabiyotlar:

1. Austin, D., Gabbett, T., & Jenkins, D. (2011). The physical demands of Super 14 rugby union. Journal of Science and Medicine in Sport, 14(3), 259–263. https://doi.org/10.1016/j.jsams.2011.01.003

2. Bompa, T. O. (2017). Periodization in sports training. Human Kinetics.

3. Verkhoshansky, Y. V. (2018). Teoriia skorostno-silovoi podgotovki sportsmenov [Theory of speed-strength training of athletes]. Moscow.

4. Verkhoshansky, Y. V. (1998). Osnovy spetsial’noi fizicheskoi podgotovki sportsmena [Fundamentals of special physical preparation of athletes]. Moscow: Fizkultura i sport.

5. Evtukh, A. V., Kvashuk, P. V., & Shustin, B. N. (2008). Nauchno-metodicheskie osnovy mnogoletnei podgotovki sportsmenov [Scientific and methodological foundations of long-term athlete preparation]. Vestnik sportivnoi nauki, (4), 16–19.

6. Platonov, V. N. (2019). Sistema podgotovki sportsmenov v olimpiiskom sporte [The system of preparation of athletes in Olympic sport]. Kyiv: Olympic Literature.

7. Matveev, L. P. (2015). Osnovy sportivnoi trenirovki [Fundamentals of sports training]. Moscow.

8. Zatsiorsky, V. M. (2016). Science and practice of strength training. Champaign, IL: Human Kinetics.

9. Kraemer, W. J., & Fleck, S. J. (2012). Strength training for young athletes. Champaign, IL: Human Kinetics.

10. Sands, W. A., & McNeal, J. R. (2014). Applied sport science for rugby.

11. Till, K., & Jones, B. (2015). Anthropometric and physical qualities of elite youth rugby players. Journal of Sports Sciences, 33(16), 1750–1757. https://doi.org/10.1080/02640414.2015.1022571.

12. Davlatova, L. T. (2021). Adaptiv sport o‘yinlarini o‘rgatish metodikasi (paravoleybol) [Methodology of teaching adaptive sports games (sitting volleyball)]. Chirchiq.

13. Kovtun, V. (2015). Voleibol sidia i basketbol na koliaskakh kak sredstva reabilitatsii lits s narusheniiami oporno-dvigatel’nogo apparata [Sitting volleyball and wheelchair basketball as means of rehabilitation for persons with musculoskeletal disorders]: Educational and methodological manual.



Pedagogika fanlari doktori(DSc), professor
A.N. SHOPULATOV[1]
[1]O‘zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti
https://orcid.org/0000-0001-7793-3181

10.65149/fansport.2026.v9i2.a032

JISMONIY TARBIYA VA SPORT SOHASIDA MUTAXASSISLAR MALAKASINI RIVOJLANTIRISH YO‘LLARI

Annotatsiya

В данной статье рассмотрены пути развития квалификации специалистов в области физической культуры и спорта, разработаны предложения и рекомендации по организации дисциплин, направленных на гармонизацию профессиональной и тренерской деятельности, освоение периодов практики.

***Ключевые слова**: физическая культура, спорт, движение, квалификация, качество, образование, профессиональные науки, тренерская деятельность, практика.*

Abstract

Ushbu maqolada jismoniy tarbiya va sport sohasida mutaxassislar malakasini rivojlantirish yo‘llari o‘rganilgan bo‘lib, kasbiy fanlar va trenerlik faoliyatini uyg‘unlashtirish, amaliyot davrlarini o‘zlashtirishga qaratilgan fanlar tashkil qilish bo‘yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

***Kalit so‘zlar**: jismoniy tarbiya, sport, harakat, malaka, sifat, ta’lim, kasbiy fanlar, trenerlik faoliyati, amaliyot.*

This article discusses the ways of developing the qualifications of specialists in the field of physical culture and sports, developed proposals and recommendations for the organization of disciplines aimed at harmonizing professional and coaching activities, mastering periods of practice.

***Keywords**: physical education, sports, movement, qualification, quality, education, professional sciences, coaching, practice.*

Kirish. Zamonaviy taraqqiyot ilm-fan yutuqlari asosida o‘sib bormoqda. Ilm-fan negizida o‘sish, rivojlanishni harakatga keltiruvchi kashfiyotlar, ixtirolarning amalga oshirilishi barcha sohalarda o‘zgarishlarni yuzaga keltirmoqda. Insonlar o‘zgarishlarni moslashishini emas balki, ularni o‘zlashtirish orqali ulardan foydalanish malakasini oshirib bormoqda. Bu esa zamonaviy taraqqiyot talablari doirasida fikrlaydigan, tez moslashadigan, o‘zlashtiradigan, o‘zi ham yangilik kiritadigan mutaxassislarga bo‘lgan ehtiyojni yuzaga kelishiga sabab bo‘lmoqda.

Bugun barcha sohalarda bo‘lgani kabi jismoniy tarbiya va sport sohasida ham zamonaviy talablar hamda yangicha ishlash uslubiga ega mutaxassislarga ehtiyoj

oshib bormoqda. Bunda xalqaro standartlarga muvofiq kompleks bilimlarga ega malakali kadrlar tayyorlash sifatini yaxshilash, sportda ilm-fanni jadal rivojlantirish, yuqori malakali raqobatbardosh trener-o‘qituvchilar, mutaxassislarni tayyorlash ishlari soha oldida turgan dolzarb vazifalardandir.

Hozirda dunyo olimlari tomonidan jismoniy tarbiya va sport sohasi mutaxassislarining kasbiy bilimlari, amaliy ko‘nikmalari, sohaviy malakalarini oshirishning ilmiy-uslubiy hamda tashkiliy asoslarini takomillashtirish bo‘yicha tadqiqotlar olib borilmoqda. Ushbu tadqiqotlarning muhim jihati shundaki, sport mutaxassislarini tayyorlash hamda aholi orasida ommaviy sportni rivojlantirishda turli sohalar hamkorligiga e’tibor qaratilmoqda. Natijada, bir tomondan iqtisodiy yuksalish ortmoqda, ikkinchi tarafdan jismoniy tarbiya va sport mutaxassislari dunyoqarashida moddiy manfaatdorlikning asosiy motivga aylanishi, jismoniy kuchni dominant sifatida bilish kabi muammolar yuzaga kelmoqda. Bu esa bo‘lajak jismoniy tarbiya va sport mutaxassislarining malakasini rivojlantirish bilan bog‘liq tadqiqotlarni tashkil qilishni talab qiladi.

Bunday mutaxassislarni avlodni tarbiyalashda ta’lim muassasalarida kasbiy bilimlarni o‘zlashtirish jarayoniga e’tibor qaratish, o‘z kasbining jamiyat rivojidagi o‘rni va kasbi bo‘yicha kerakli kompetensiyalarga ega bo‘lish jarayonlarini nazorat qilish kerak bo‘ladi. Bu borada O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 3-noyabrdagi “Jismoniy tarbiya va sport sohasida kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirish va ilmiy salohiyatni oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 4877-sonli qarori, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 3-noyabrdagi “Jismoniy tarbiya va sport sohasida kadrlarni tayyorlash hamda ilmiy tadqiqotlar tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-414-son qarorlarining qabul qilinishi jismoniy tarbiya va sport sohasida tayyorlanayotgan kadrlarning sifat va malakasiga e’tibor qaratish kerakligini ko‘rsatdi[3].

Jamiyat ijtimoiy-iqtisodiy hayotidagi qonuniyatlar doirasida ilmiy-tadqiqot ishlarini tashkil qilish samarali hisoblanadi. Ayniqsa jismoniy tarbiya va sport sohasiga tadbiq etish trener va sporchining tafakkur tarzini, ya’ni eskicha ishlash uslubini o‘zgartirib, ilmiy yutuqlar bilan ishlash ko‘nikmasini rivojlanishiga xizmat qiladi. Jismoniy tarbiya va sport sohasining rivojlanib borishi aholining qiziqishini hamda sohaga turli iqtisodiyot tarmoqlarining kirib kelishini kuchaytirib yubordi. Xususan sohaga innovatsion texnologiyalarining keng miqyosda joriy qilinishi sohani yanada jozibadorligini oshirib, turli sohalarning kirib kelishini tezlashtirmoqda.

Jismoniy tarbiya va sport sohasiga ilmiy yondashilmas ekan ommaviy sportni rivojlantirish hamda yuqori malakali sportchilarni tayyorlash ishlarida barqaror natijalarga erishib bo‘lmaydi. Ushbu tizimga boshqa sohalardan kirib kelayotgan ilmiy yutuqlar katta imkoniyatlarni yaratib bermoqda. Shuning uchun ham jismoniy tarbiya va sport sohasida yuqori natijalarga erishishni xohlar ekanmiz tizimga ilm-fan yutuqlarini tadbiq etish bilan birga malakali mutaxassislarni tayyorlash ishlarini rivojlantirish zarur (1-rasmga qarang).



1-rasm. Jismoniy tarbiya va sport sohasidagi ta’lim muassasalari faoliyatini kasbiy bilimlarni rivojlantirishga yo‘naltirish sxemasi

Biz 20-rasm orqali jismoniy tarbiya va sport sohasida ilm-fan yutuqlaridan foydalanish hamda kasbiy falarni o‘zlashtirish, amaliyot davrlarini kadrlar tayyorgarligi jarayonidagi ahamiyatini ko‘rsatib berishga harakat qildik.

Biz anketa-so‘rov orqali talabalarning kasbiy fanlar va trenerlik faoliyatini uyg‘unlashtirish hamda amaliyot davrlarini o‘zlashtirishga qaratilgan fanlar rivojlantirish jarayonlariga munosabatini o‘rgandik. “Siz kasbiy fanlar va amaliyot davrlarida bilimlar o‘zaro uyg‘un, deb hisoblaysizmi?” degan savolga 63% talabalar “Yo‘q”, 15 % “Ha”, 22 % “Qisman” deb javob berishgan (2-rasmga qarang).



2-rasm. “Siz kasbiy fanlar va amaliyot davrlarida bilimlar o‘zaro uyg‘un, deb hisoblaysizmi?” savoliga berilgan javoblar diagrammasi

Savollarga berilgan natijalarni tahlil qiladigan bo‘lsak talabalarning kasbiy fanlar va amaliyot davrlarida bilimlar o‘zaro uyg‘unlashtirish zarurligi yaqqol ko‘zga tashlanadi. Ayniqsa, sport ta’lim muassasalarida trenerlarning ilm-fan yutuqlaridan foydalanish bo‘yicha bilimlarini, tajribasini oshirib borish kerakligini ko‘rsatdi. Chunki, professor-o‘qituvchilarning – nazariy bilimlar, nazariy bilimlarni amaliyotga qo‘llash, pedagogik mahorat, ilmiy faoliyati, ilmiy natijalari va yutuqlari, psixologik ko‘nikmalari, tartib-intizomni saqlash, sportchilarning natijalari tahlil qilish bo‘yicha malakalarini oshirib borish; trenerlarning – nazariy bilimlar darajasi, nazariy bilimlarni amaliyotga qo‘llash, pedagogik mahorat, dietologik, farmokologik va psixologik ko‘nikmalari, tartib-intizomni saqlash bo‘yicha tajribasini oshirib borish; bitiruvchilarning – nazariy bilimlar darajasi, tanlangan sport turiga motivatsiyasi darajasi, sport natijalari, darsdan tashqari amaliyotdagi faoliyati, dietologik, farmokologik va psixologik ko‘nikmalari, tartib-intizomga rioya qilish ko‘nikmalarini, mustaqil fikrlash va tahlil qila olish qobiliyati rivojlantirish bugungi davrining zaruriyati bo‘lib qolmoqda.

Jahonda jismoniy tarbiya va sport sotsial institut sifatida rivojlanib borar ekan, undan hayotimizning barcha jabhalarida foydalanish o‘z samarasini beradi. Ayniqsa, jismoniy tarbiya va sportni rivojlantirish orqali xalqning madaniyatini tiklash, xalqaro munosabatlar uchun zarur bo‘lgan tinchlik, do‘stlik qadriyatlarni shakllantirishda ham muhim hisoblanadi. Shu ma’noda, jismoniy tarbiya va sport sohasida xalqaro hamkorlikni rivojlantirish davlatlar o‘rtasida siyosiy, madaniy hamkorlikning rivojlanishiga olib keladi. Xalqlar o‘rtasidagi munosabatlarning rivojlanishiga hamda o‘zaro do‘stlik, birodarlikning mustahkamlanishiga xizmat qiladi. Shuningdek, davlatlar o‘rtasida o‘zaro tajriba almashish, sportdagi muammolarni o‘rganish, bartaraf etish imkoniyatini yaratadi. Mazkur muammolarni o‘rganish bo‘yicha ilmiy-tadqiqot ishlarini rivojlantirish sohadagi muammolarning ilmiy yechimini aniqlashda dolzarb hisoblanadi.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev O‘zbekiston Mustaqilligining yigirma to‘qqiz yilligiga bag‘ishlangan tantanali marosimdagi nutqida O‘zbekistonda yangi bir uyg‘onish – Uchinchi Renessans davriga poydevor yaratilayotgani haqida gapirganligi bejiz emas. Chunki, har bir xalqning rivojida ilm-fan va ma’rifatning o‘rni beqiyos bo‘lib, nafaqat madaniy-ma’rifiy rivojlanish balki iqtisodiy rivojlanishini ham belgilab beradi. Jamiyatda ilm-fanning rivojlanishi ortidan xalqning turmush darajasi, tafakkkur tarzining o‘sishi ko‘zatiladi. Natijada malakali mutaxassislar avlodi shakllanib boradi. Bu esa har bir sohaning rivojlanishiga olib keladi. Shuning uchun ham jamiyatimizda bugungi kunda har bir sohada ilmiy-tadqiqot ishlarini rivojlantirishimiz, malakali kadrlar tayyorlash ishlari sifatini oshirish hamda sog‘lom avlodni tarbiyalashga alohida e’tibor qaratish har qachongidan muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Jamiyatimizda sog‘lom turmush tarzini shakllantirish, aholining, ayniqsa yosh avlodning jismoniy tarbiya va ommaviy sport bilan muntazam shug‘ullanishi uchun zamon talablariga mos shart-sharoitlar yaratish, sport musobaqalari orqali yoshlarda o‘z irodasi, kuchi va imkoniyatlariga bo‘lgan ishonchni mustahkamlash, mardlik va vatanparvarlik, ona Vatanga sadoqat tuyg‘ularini kamol toptirish, shuningdek, yoshlar orasidan iqtidorli sportchilarni saralab olish ishlarini tizimli tashkillashtirish hamda jismoniy tarbiya va ommaviy sportni yanada rivojlantirishga yo‘naltirilgan keng ko‘lamli ishlar amalga oshirilmoqda. Mazkur harakatlarda barkamol avlodni tarbiyalash asosiy masalalardan biri bo‘lib qolmoqda. Shuningdek, jismoniy tarbiya va sportning ijtimoiy institut sifatida

rivojlanib borishi, uning imkoniyatlaridan samarali foydalanish bo‘yicha ishlarni tashkil qilish zarur ekanligini ko‘rsatadi.

Umuman olganda jismoniy tarbiya va sport sohasida malakali mutaxassislar tayyorlash jarayonlarini yanada rivojlantirish bo‘yicha ishlarni amalga oshirishda quyidagilarga e’tibor qaratish lozim:

Birinchidan, xalqning jismoniy tarbiya va sport bilan muntazam ravishda shug‘ullanishida jismoniy tarbiya va sport bo‘yicha bilimlari muhim ahamiyat kasb etar ekan, bu borada yangi o‘quv adabiyotlarining mavjudligi hamda yaratish ishlarining tizimli tashkil etilganligiga e’tibor qaratish kerak bo‘ladi. Xususan, jismoniy tarbiya va sport bo‘yicha bilimlarni rivojlantirishga qaratilgan turli zamonaviy adabiyotlar, bukletlar tayyorlash va tarqatish ishlarini tashkil qilish, elektron platformalar yaratish, mazkur ma’lumotlarni o‘qishga qiziqtiruvchi manbalarni joylashtirish muhim ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, yaratilayotgan manbalarni zamonaviy ko‘rinishda, ya’ni ijtimoiy tarmoqlarda yoshlar e’tiboriga havola qilish o‘z samarasini beradi;

Ikkinchidan, jismoniy tarbiya va sport sohasiga doir xorijiy innovatsion ishlanmalarni mamlakatimizda joriy qilish tizimini takomillashtirib borish kerak. Asosan, jismoniy tarbiya va sport sohasida xorijiy tajribalarda muvaffaqiyatli sinovdan o‘tgan innovatsion ishlanmalarni o‘rganish, tahlil qilish uchun jismoniy tarbiya va sport bo‘yicha mutaxassislarini xorijda malaka oshirish ishlarini yanada rivojlantirish. Bunda yuborilgan mutaxassislar orqali innovatsion ishlanmalarni mahalliy sharoitga moslashtirish hamda amaliyotga joriy qilish ishlari monitoringini tashkil qilish zarur hisoblanadi;

Uchinchidan, har bir sohani rivojlantirishda o‘zaro hamkorlik muhim ahamiyat kasb etadi. Nufuzli xorijiy sport tashkilotlari tajribasini o‘zlashtirish maqsadida xorij tashkilotlari bilan hamkorlikda bajariladigan loyihalarni tashkil qilish zarur hisoblanadi. Nafaqat ma’lum bir yangilik, balki jarayonni o‘rganish metodologiyasi ham o‘rganiladi. Bu esa kelgusi tadqiqotlarni tashkil qilishda o‘z samarasini beradi. Shuningdek, jismoniy tarbiya va sport sohasidagi mutaxassislarning Scopus va Science Direct xalqaro ilmiy-texnik ma’lumotlar bazasida mavjud bo‘lgan jurnallarda ilmiy maqolalarni nashr etish bo‘yicha ishlarini qo‘llab-quvvatlash hamda rag‘batlantirish mexanizmlarini rivojlantirib borish lozim;

To‘rtinchidan, jismoniy tarbiya va sport sohasida olib borilayotgan islohotlarni tizimlashtirish, yoshlar orasida sportni ommalashtirishdan tortib, saralash jarayonlarini tashkil qilish hamda iqtidorli sportchilarni olimpiya zaxiralariga tanlab olish jarayonlarini ma’lum bir maqsadga yo‘naltirish kerak. Bunda xalqimizning jismoniy tarbiya va sport bo‘yicha salohiyatini rivojlantirib borish, jismoniy tarbiya va sportni ommalashtirish, uch avlod o‘rtasidagi voriysilikni ta’minashga e’tibor qaratish sohaga bo‘lgan barqaror munosabatlarning shakllanib borishiga xizmat qiladi.

Adabiyotlar:

1. Platonov, V. N. (2005). Sistema podgotovki sportsmenov v olimpiyskom sporte [System of athlete preparation in Olympic sport]. Moscow: Sovetskiy sport.

2. Matveev, L. P. (2010). Obshchaya teoriya sporta i ee prikladnye aspekty [General theory of sport and its applied aspects] (5th ed.). Moscow: Sovetskiy sport.

3. Salamov, R. S. (2003). Sovershenstvovanie obrazovatelnogo protsessa podgotovki bakalavrov po napravleniyu “Fizicheskaya kultura i sport” [Improvement of the educational process for bachelor training in physical culture and sport] (Doctoral dissertation). Tashkent.

4. Matkarimov, R. M. (2022). Yuqori malakali og‘ir atletikachilarni ko‘p yillik tayyorlashning ilmiy-nazariy asoslari [Scientific and theoretical foundations of long-term training of highly qualified weightlifters] (DSc dissertation abstract). Chirchiq: Tipograff.